

## TERRORIZM

**Mahammadaliyev Asadbek Ahadjon o'g'li**

*IV Akademiyasi 3- kurs kursanti*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada Terrorizm inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ro'yobga chiqarishdagi eng katta va eng xatarli to'siqligi, Asr vabosiga qarshi kurashish borasida respublikamizda amalga oshirilayotgan islohotlar, Terrorizm va ekstremizm tahdidlariga qarshi kurashish bo'yicha ko'rilayotgan samarali chora-tadbirlar natijasi haqida so'z boradi.*

**Kalit so'zlar:** *terrorizm, inson huquqlari, erkinlik, manfaat, jamiyat, voqea-hodisa, tabiat, tushuncha, ekstremizm.*

**Аннотация:** *В данной статье рассказывается о самом большом и наиболее опасном препятствии терроризму в реализации прав, свобод и законных интересов человека, о проводимых в нашей республике реформах по борьбе с чумой века, о результатах эффективных мер, принимаемых в борьбе с угрозами терроризма и экстремизма.*

**Ключевые слова:** *терроризм, права человека, свобода, интересы, Общество, событие, природа,*

**Annotation:** *this article will talk about the greatest and most dangerous obstacle to the realization of human rights, freedoms and legitimate interests of terrorism, the result of the reforms implemented in our republic to combat the plague of the century, effective measures taken to combat the threats of terrorism and extremism.*

**Keywords:** *terrorism, human rights, freedom, interest, Society, event, nature,*

Jahonda yuz berayotgan globallashuvlar, madaniyatlarning o'zaro bir biriga ta'siri faqatgina inson hayotiga emas, balki tabiat, jamiyat va ma'lum bir voqea-hodisalarga tegishli tushunchalarni ham o'zgartirib yubormoqda. Hozirgi kunda terrorizm barqaror rivojlanish va dunyodagi millatlararo totuvlikka tahdid solmoqda. U barcha sohalarga o'z ta'sirini ko'rsatib kelmoqda. Ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan o'zaro kelishmovchiliklarga ega bo'lgan jamiyat terrorizm uchun ayni mos va qulay joydir. Terrorchilik harakatlarining bosh maqsadi bir yoki bir necha mamlakatni yoki butun jamiyatni zaiflashtirishga va yo'q qilishga qaratilgandir.

Terrorizm - lotincha "terror" qo'rqinch, dahshat degan ma'noni bildirib, terror bilan amalga oshiriladigan siyosat va taktika. Siyosiy raqiblarni, muxoliflarni yo'q qilish yoki qo'rqitish, aholi o'rtasida vahima va tartibsizliklarni keltirib chiqarish maqsadidagi zo'ravonlik harakatlaridir. Ushbu atama birinchi marta Fransiya inqilobi davrida ishlatilgan.

Terrorizmga odamlarni qo'rqitish, tahdid, o'ldirish, mol-mulkni tortib olish, yo'lto'sarlik, zo'ravonlik qilish, yakka yoki jamoaviy tarzda jinoiy rejani amalga oshirish kabilar kiradi. Ushbu harakatlarni sodir etuvchi shaxslarning maqsadi kishilarni qo'rqitish, tahlikaga solish, boshqalarning hayoti, erkinliklarini va mol-mulkini xavf-xatarga qo'yishdir.

Terrorizm inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ro'yobga chiqarishdagi eng katta va eng xatarli to'siqdir. Bu esa ularni bartaraf etish yo'llarini izlash uchun birgalikda

harakat qilishni talab etadi. Ushbu maqsadda so'nggi yillarda bir qator loyihalar amalga oshirilmoqda.

Terrorizmning mazmuni haqida gap ketganida, terrorizmning qanday tarqalishi tushuniladi. Yadroviy terror va kiber terror terrorizm tarqalishining ikkita muhim usuli hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2020-yil 10-noyabr kuni Shanxay Hamkorlik Tashkilotiga a'zo davlatlar rahbarlari kengashining video anjuman shaklida o'tgan navbatdagi majlisida so'zlagan nutqida terrorizm va ekstremizm bilan bog'liq jinoyatlarga qarshi kurashish bo'yicha mintaqada o'zaro hamkorlikning ahamiyatini yana-da oshirish zarurligiga e'tibor qaratdi.

Terrorizm va ekstremizm tahdidlariga qarshi kurashish bo'yicha ko'rilayotgan samarali chora-tadbirlar natijasida mamlakatimizda ushbu yo'nalishdagi jinoyatlar soni, ayniqsa, o'ttiz yoshgacha bo'lgan shaxslar o'rtasida oldingi yillarga nisbatan keskin kamaydi. Bu Shanxay Hamkorlik Tashkiloti Mintaqaviy aksilterror tuzilmasi ijroiya qo'mitasi tomonidan "Terrorizmga qarshi kurash - chegara bilmas hamkorlik" mavzusida tashkil etilgan VI xalqaro ilmiy-amaliy koferensiyada qayd etib o'tildi. So'nggi yillarda terrorizm va ekstremizmga qarshi kurashish bo'yicha huquq-tartibot idoralari tizimida xodimlar qayta o'qitildi, bilim va malakalari oshirildi. Mazkur turdagi jinoyatlarni sodir etishda gumon qilinayotgan shaxslar bilan ishlashda, aybi isbotlangan jinoyatchilarga nisbatan sud tomonidan jazo tayinlash tizimida va boshqa shu kabi faoliyat jarayonlarida ham ulkan ijobiy ishlar olib borildi.

Asr vabosiga qarshi kurashish borasida respublikamizda amalga oshirilayotgan islohotlar davlatimiz tinchligi va xavfsizligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Xulosa qiladigan bo'lsak, umuman olganda, terrorizm ko'p jihatdan murakkab tuzilishga ega bo'lganligi sababli uni tadqiq qilishda hali-hanuz muvaffaqiyatli natijalar ko'zga tashlanmaydi. Terrorizmni butkul tak-tomiri bilan yo'q qilish imkonsiz. Biroq unga qarshi ko'plab chora-tadbirlar ko'rish orqali uning xavfini bir necha baravarga ozaytirish mumkin. Terrorizm umuminsoniy qadriyatlarni poymol etadi. Bundan tashqari terrorizm qonunchilik nuqtai nazaridan eng og'ir jinoyatlar qatoriga kiradi.

Bugungi kunda qanday mavqe-mansabda ekanligimiz va kim bo'lishimizdan qat'i nazar, jamiyatimizdagi har bir insonning vazifasi terrorizmning razil, qabih, g'arazli maqsadi hamda mohiyatini butun xalqimiz, ayniqsa, yoshlar orasida keng fosh etish orqali barchani ogohlikka chaqirishdan iboratdir.